

AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA IT YO'NALISHIDAGI TO'GARAK ISHTIROKCHILARINING MOTIVATSIYASINI OSHIRISH TIZIMI

Botiraliyeva Maftuna Botirali qizi

Qo'qon davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada IT yo'nalishidagi to'garak ishtirokchilarining o'quv motivatsiyasini oshirishda akmeologik yondashuvning ahamiyati yoritilgan. Akmeologiya fanining nazariy asoslari, uning shaxsiy va kasbiy rivojlanishdagi o'rni, shuningdek, informatika ta'limida qo'llanilishi tahlil qilinadi. Akmeologik yondashuv orqali o'quvchilarning shaxsiy kamoloti, ijodiy fikrlashi, o'z-o'zini baholash va o'z ustida ishlashga bo'lgan ehtiyoji kuchaytiriladi. Maqolada IT yo'nalishidagi to'garaklarda motivatsiyani oshirishning bosqichlari, pedagogik sharoitlari va samarali omillari tizimli tarzda bayon etilgan.

Kalit so'zlar: akmeologiya, akmeologik yondashuv, informatika to'garagi, motivatsiya tizimi, refleksiya, shaxsiy rivojlanish, IT ta'lim, ijodiy fikrlash.

КОНТЕКСТНЫЙ ПОДХОД К ПОДГОТОВКЕ УЧИТЕЛЕЙ

Аннотация: В статье рассматривается значение акмеологического подхода в повышении учебной мотивации участников ИТ-кружка. Анализируются теоретические основы акмеологии, её роль в личностном и профессиональном развитии, а также применение в образовании в области информатики. Акмеологический подход способствует развитию личности учащихся, развитию творческого мышления, самооценки и потребности в работе над собой. В статье системно описаны этапы, педагогические условия и факторы повышения мотивации в ИТ-кружках.

Ключевые слова: акмеология, акмеологический подход, информатика, система мотивации, рефлексия, личностное развитие, ИТ-образование, творческое мышление

CONTEXTUAL APPROACH TO TEACHER TRAINING

Abstract: The article highlights the importance of the acmeological approach in increasing the learning motivation of IT circle participants. The theoretical foundations of acmeology, its role in personal and professional development, as well as its application in computer science education are analyzed. The acmeological approach enhances students' personal development, creative thinking, self-assessment and the need to work on themselves. The article systematically describes the stages, pedagogical conditions and effective factors of increasing motivation in IT circles.

Keywords: acmeology, acmeological approach, computer science circle, motivation system, reflection, personal development, IT education, creative thinking

XXI asrda axborot texnologiyalari barcha sohalarida ustuvor o'rin egallab, inson faoliyatining ajralmas qismiga aylandi. Shu sababli ta'lim tizimida o'quvchilarning IT sohasiga bo'lgan qiziqishini rivojlantirish, ularda dasturlash, algoritmik tafakkur, raqamli savodxonlikni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ko'plab o'quvchilar to'garak mashg'ulotlariga dastlabki qiziqish bilan kirishsalar-da, vaqt o'tishi bilan bu qiziqish pasayadi. Shu nuqtai nazardan, akmeologik yondashuv asosida yaratilgan motivatsion tizim o'quvchilarni o'z imkoniyatlarini kashf etishga, o'zini o'zi rivojlantirishga va yutuqqa erishishdan ichki qoniqish olishga yo'naltiradi. Akmeologiya inson shaxsining eng yuqori rivojlanish darajasi, kasbiy va shaxsiy kamolotga erishish qonuniyatlarini o'rganadi. Bu fan shaxsni tashqi boshqaruv obyektidan ichki rivojlanish sub'ektiga aylantirishni maqsad qiladi. IT yo'nalishidagi o'quvchilar uchun bu yondashuv o'z kasbiy yo'lini anglash, raqamli tafakkurni rivojlantirish va innovatsion fikrlashni o'zlashtirish uchun muhim metodologik asosdir.

To'garaklar — bu o'quvchilarning mustaqil izlanishi, amaliy tajriba orttirishi va o'z qiziqishlarini ro'yobga chiqarish imkoniyatidir. IT yo'nalishidagi to'garaklarda o'quvchilar dasturlash, robototexnika, raqamli dizayn, loyiha faoliyati va tanlovlarda qatnashish orqali o'z salohiyatini namoyon etadilar. Biroq faoliyat samaradorligi o'quvchilarning ichki motivatsiya darajasi bilan bevosita bog'liqdir. Shu sababli to'garak rahbari texnik bilim bilan birga psixologik-akmeologik qo'llab-quvvatlash tizimini shakllantirishi zarur. Akmeologik yondashuv asosidagi motivatsiya tizimi shaxsning rivojlanish potensialini ochish, natijaga yo'naltirish va ichki qoniqishni ta'minlaydigan mexanizmlar majmuasidir. U uch bosqichda amalga oshiriladi: diagnostika, rivojlantirish va refleksiya. Har bir bosqichda o'quvchining shaxsiy ishtiroki, mustaqil faoliyati va tahliliy fikrlashi muhim ahamiyat kasb etadi. Motivatsion tizim quyidagi komponentlardan iborat: motivatsion (qiziqish uyg'otish), kognitiv (bilimni oshirish), faoliyatli (amaliy faoliyatni yo'lga qo'yish), refleksiv (o'zini baholash va rivojlantirish). Har bir komponent o'quvchining individual ehtiyojlari asosida shakllantiriladi.

Akmeologik motivatsion tizim samaradorligi uchun o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida sub'ekt-sub'ektlilik munosabat o'rnatilishi, ijodiy muhit yaratish, o'quvchi tashabbusini rag'batlantirish va raqamli texnologiyalarni faol qo'llash zarur. Akmeologik yondashuv asosida IT yo'nalishidagi to'garak ishtirokchilarining motivatsiyasini oshirish tizimi o'quvchilarning shaxsiy kamoloti, ijodkorligi va kasbiy o'sishiga zamin yaratadi. Bu yondashuv o'quvchini tayyor bilim oluvchidan faol, izlanishga intiluvchi, maqsadga yo'naltirilgan sub'ektga aylantiradi. Natijada

o'quvchilar texnik bilim bilan birga raqamli tafakkur, refleksiya va o'zgarishlarga moslashish kompetensiyalarini rivojlantiradilar.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдуллаева Н. Акмеологик yondashuv va ta'lim samaradorligi. – Toshkent: TDPU, 2021.
2. Xolmatova M. Informatika ta'limida motivatsiyani shakllantirish omillari. Pedagogik innovatsiyalar jurnali, 2022, №3.
3. Ziyamuhamedov B. Axborot texnologiyalari to'garaklarini tashkil etishning metodik asoslari. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020.
4. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. – Москва: Смысл, 2019.
5. Абдуллин А. Акмеология в профессиональном развитии педагога. – Казань, 2018.
6. Davletova D., Raximov S. Ta'limda akmeologik yondashuvning o'quvchi motivatsiyasiga ta'siri. O'zbekiston ta'lim sohasidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, 2023.